

TURKEY

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE

DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MODERN SCIENCES





DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN
MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



WOC

WORLD
ONLINE
CONFERENCES



TURKISH International Scientific
Online Conference:

«**DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL
TECHNOLOGIES IN MODERN SCIENCES**»

A collection of articles by Central Asian scholars
Issue 4, Part 1

Indexed databases:



March 31, 2024

woconf.com





DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MODERN SCIENCES: a collection scientific works of the International scientific conference (31th March, 2024) – Istanbul, Turkey: «AID», 2024. Part 1.

Languages of publication: Polish, Russian, English, Maldaski, Kazaqsha, o'zbek, limba rombnă, Kyrgyz tili, Հայերեն

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MODERN SCIENCES**». Which took place in Istanbul on March 31, 2024.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© «AID», 2024

© Authors, 2024




TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

SECTION 1. ARTICLES FROM CENTRAL ASIA

1.	IRRIGATSIYA TERMINOLOGIYASI KELIB CHIQISH TARIXI Yusupov Erkin Kurbanovich, Quvondiqova Hulkaroy Suvondiq qizi	5
2.	TA'LIMDA ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSION TEKNOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI Nurmatova Mayya, Qutlimuratova Barchinoy Ravshanbek qizi, Romonberdiyeva Sarvinoz Komiljon qizi	10
3.	THE CONCEPT OF MODERN APPROACH AND INNOVATIVE TECHNOLOGY IN EDUCATION AND ITS ESSENCE Nurmatova Mayya, Qutlimuratova Barchinoy Ravshanbek qizi, Romonberdiyeva Sarvinoz Komiljon qizi	15
4.	AUTOMATED PRODUCTION SYSTEMS FOR PROCESS DEVELOPMENT Urinov Nasillo Fayzilloevich	20
5.	CHINGIZ AYTMATOVNING "OQ KEMA" QISSASIDAGI BADIY OBRAZLAR TAHLILI. Abdullayeva Gulnora Gaybulloyevna, Toshpulotova Dildora Otabek qizi	23
6.	GOVERNMENT REGULATION OF ECONOMIC SECURITY OF THE COUNTRY Asrorbek Torayev	30
7.	НАЛОГОВАЯ ПОЛИТИКА В ФИНАНСОВО-ПРОМЫШЛЕННЫХ ГРУППАХ Ильнур Сулейманов, Дмитрий Рахимов	33
8.	THEORETICAL BASICS OF THE TYPES OF MUSICAL ACTIVITIES IN PRIMARY CLASS MUSIC CULTURE LESSONS Karimova Dildora Anvarovna, Yusupov Yusupboy Mansurbek ugli	39
9.	INNOVATIVE EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS IMPROVEMENT OF THE SYSTEM Jumaboyeva Navroza	45
10.	ОСОБЕННОСТИ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОГО СОПРОВОЖДЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА Наркулов Азамат Кидирали угли	49
11.	CONCEPT AND TYPES OF FORMS OF CRIME PREVENTION. CONCEPTS, CONTENT AND APPLICATION OF WRITTEN, ORAL AND VISUAL FORMS OF CRIME PREVENTION. Ibragimov Shukhrat Ismailovich	56

CHINGIZ AYTMATOVNING “OQ KEMA” QISSASIDAGI BADIY OBRAZLAR TAHLILI.

Abdullayeva Gulnora Gaybulloyevna

BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

Toshpulotova Dildora Otabek qizi

BuxDU, Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10808450>

Abstract: This article discusses the linguistic meaning of the artistic images found in the story of the White Ship, their figurativeness, and how important they are in the work. It also commented on the dictionary meaning of archaeology, historism, and neologism and their use in the poem.

Keywords: Image and imagery, character, character, nationality and ethnicity, theme and idea, system, archaeology, istorism, neologism

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Oq kema” qissasida uchraydigan badiiy obrazlarning leksik jihatdan qanday ma'no ifodalashi, ularning obrazlilik va asarda qanday muhim ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida so'z boradi. Shuningdek arxaizm, istorizm va neologizmning lug'aviy ma'nosi va asarda ularning qo'llanilishi haqida ham fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Obraz va obrazlilik, personaj, xarakter, milliylik va umuminsoniylik, mavzu va g'oya, syujet, arxaizm, istorizm, neologizm.

“Obraz” termini rus tilidan olingan bo'lib, “aks” degan ma'noni anglatadi. Masalan, kishining oynadagi aksiga nisbattan ham “obraz” deb aytiladi. Biroq, bilamizki, so'zning lug'aviy ma'nosi bilan uning istilohiy farq qiladi; lug'aviy ma'no bilan istilohiy ma'nos orasida tutash nuqtalar bo'lsa-da mutaxassis istiloh ostida konkret ma'noni tushuntiradi. Shunga ko'ra, biz “obraz” deganda adabiyot san'atning tafakkur shakli bo'lmish badiiy obraz yuzaga keladi. [1; 40]. Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va h.k) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o'sha borliqning aksi emas, u san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan shaklidir.

“Obrazlilik” – san'atning asosiy xususiyati, hayotni o'zlashtirishning o'ziga xos shakli va usuli, uning tili va shu bilan birga hayot hodisalari ustidan chiqargan “hukmi”dir. Obrazlilik – adabiy ijodning xususiyatlari: adabiy qahramon, badiiy til, tabiat, buyumlar, jismlar, narsalar, hayvonot dunyosi tasviri va boshqalarni o'z ichiga qamrab oladi. [1; 41]

Qissada keltirilgan badiiy obrazlar: - Mo'min chol, bola, O'rozqul, Seydahmad, Bekey xola, Guljamol, sotuvchi, Qulibek, Ko'katoy, Cho'tboy va boshqalar. Misol uchun, qissadagi O'rozqul obrazini olsak, u salbiy obraz sifatida

tasvirlangan bo`lsa-da, ba`zan o`quvchida qissani o`qib turib, ushbu obrazga nisbatan achinish hissi paydo bo`ladi. U farzand dog`ida kuyib o`rtanadi. Tabiat unga hatto bir tirnoqni ham ravo ko`rmaydi. U yolg`iz qolgan paytlarida va ichib mast holatda bo`lganida, o`zining bu kemptik qismatidan nola qiladi, lekin buni hech kimga bildirmaydi, faqat nola-yu faryod qilib yig`laydi. O`zining bu shum taqdiriga achchiq qilib xotinini uradi, bolani yomon ko`radi, Mo`min cholga esa azob beradi. Ushbu qissani o`qib turib, o`uvchida bu obrazga nisbatan ham salbiy, ham ijobiy fikr uyg`onadi.

Qissada keltirilgan obrazlilik vositalari: oq kema, portfel, bug`u, o`tlar, qarag`ay, shiroljin toshlar: - “sevimli”, “botir”, “hurkak”, “yovuz”, “tuya”, “bo`ri”, “tarhgalpoq”, otlar...

“Personaj” – lot. “persona” – shaxs, sa`at san`at va badiiy adabiyotda muallif tomonidan tasvir etilgan shaxs. Personajlar asar voqealarida qatnashishi, tasvirlanishi va umumlashtirish darajasiga ko`ra asosiy personajlar, yordamchi personajlar va epizodik personajlarga bo`linadi. Badiiy asar voqealarining boshidan oxirigacha faol qatnashgan va yozuvchining asosiy g`oyaviy, estetik niyatini ko`rsatib beruvchi shaxslar asosiy personajlar deb ataladi. Barcha voqealarda to`la qatnashmasa-da yozuvchining g`oyaviy niyatini to`laroq ochishga xizmat qiladigan faol obrazlar yordamchi personajlardir. [3; 132]

1. Asosiy personajlar: Mo`min chol, bola, O`rozqul, Bekey xola.


2. Yordamchi personajlar: bolaning dadasi, Seydahmad, Guljamol.

3. Epizodik personajlar: sotuvchi, Qulibek, Ko`katoy, Cho`tboy, o`qituvchi, Usmonali, haydovchi...

- Xarakter – adabiyot va san`at asoslarida xususiy belgilari mukammal tasvirlangan va o`zida fe`l atvor (hissi-harakat, kechinma, fikriy va nutqiy faoliyat) ning tarixan aniq tipini mujassamlashtirgan shuningdek, muallifning ma`naviy-estetik konsepsiyasini ifodalagan inson obrazidir. [2]

“Ularning marakasida men xizmat qilmasam, kim xizmat qiladi? Karomatli shoxdor ona bug`u bizga tirikda ham, o`likda ham do`stlikni vasiyat qilib qoldirgan.” [3;12]

Ushbu gapdan shuni tushunish mumkinki, Mo`min chol xarakter sifatida namoyon bo`lyapti, u har qanday og`ir muhitda ham, nochor qolgan ahvolda ham o`zining ichki kechinmalarini, dardlarini yashirib, o`sha paytdagi biqiq muhitni yemirib tashlab, doimo olg`a intilishga harakat qiladi. U juda oqko`ngilligi, sadoqatliligi, mehribonligi, xushmuomalaligi tufayli Mo`min chaqqon laqabini olgan.



Adabiyot xalq hayotini aks ettirar ekan, u albatta ijtimoiy turmushdagi milliy umuminsoniy jihatlari bilan badiiy ifodalanishi tabiiy bir holdir. Milliylik va umuminsoniylik adabiyotning ruhida chuqur iz qoldiradi. Shu sababli, milliylik va umuminsoniylik ijtimoiy hodisalargina emas, ayni paytda estetik hodisa hisoblanadi. Umuman aytganda, adabiyot xalqning hayoti, kasb-kori, ijtimoiy ongini aks ettirish yo`li bilan uning milliy xarakterini ifodalaydi. [4;351]

Xo`sh, ushbu qissada milliylik va umuminsoniylik qay tarzda bayon etilgan deysizmi? Bu tuyg`ular dafn marosimlari, qabr ustiga marmar toshning qo`yilishi, bug`uning shoxini qo`yilishi, yangi tug`ilgan bolaga esa beshik olib kelinishi, mehmondo`stlik kabi milliy urf-odatlarimiz, an`analarimiz aks ettirilgan. Misol uchun baliq timsolini oladigan bo`lsak, u erk va kuch-qudrat ramzi sifatida bayon etilgan. Oq kemanding o`zi esa - to`kislik, mehr-oqibat, diydor ramzi hisoblanadi.

Mavzu - (yun. Thema - asosda turuvchi) - badiiy asarda falsafiy, ijtimoiy axloqiy va boshqa muammolarini qo`yish hamda yoritishga xizmat qilgan, shu asarning hayotiy asosini tashkil etgan voqea-hodisalar rivojidir. Umuman olganda mavzu yozuvchi tomonidan hayotdan tanlab olingan va tasvirlangan voqea-hodisalar doirasini, asarda yoritilgan hayotiy masalalarni tashkil qiladi. G`oya esa - san`at asarida qo`yilgan va yoritilgan masalalarni kelib chiqadigan mantiqiy xulosadir [1;104]

Qissaning asosiy mavzusi shuki, - bir yosh bolaning orzu intilishlari ya'ni qachondir bo`lsa ham, o`sha oq kemaga yetishish va shu kemada o`z otasini ko`rish ilinjida qilingan orzusidir. Ushbu asarda oila masalasiga alohida e'tibor berilgan. Bolaning yolg`izligi-yu, o`z otasiga bo`lgan sog`inch hissi, O`rozqulning farzandsizligi-yu, Mo`min cholning iztiroblari, bularning barchasi asarning asosiy g`oyasi hisoblanadi.

- Hayot materialini badiiy aks ettirishda yozuvchi rang-barang tasvir vositalaridan foydalanadi. Syujet mana shunday hodisalardan biridir. Syujet (fran.- sujet - predmet, mazmun) - adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalivchi hayotiy voqealar majmuidir. [1; 108] "Oq kema" qissasining asosiy mazmuni yaxshilik va yomonlikni, ezgulik va yovuzlikni, halol va haromni ajratish, tabiatni sevish, insonlarga yaxshilik qilish, chidamlilikni, sabrni ko`rsatib berishdan iborat. Yozuvchi bir bola nigohida butun bir dunyoning kirdikorlarini ochib berishga harakat qilgan.

Arxaizm - yunon. "archaios" - qadimgi so`z, aktiv so`zlar qatorida sinonimi mavjud bo`lgan eski so`zlardir. Bu o`rinda so`zning shakli eskirgan, ammo ma'nosi saqlangan - boshqa so`zga ko`chgan bo`ladi. Masalan, oraz-yuz, dudoq-

lab, muhr-pechat, aqcha-pul, jumhuriyat-hokimiyat kabi soʻzlarda soʻzning birinchi shakli eskirgan, ikkinchi shakli esa hozirgi adabiy tilimizda aktiv adabiy soʻzlar qatorida qollaniladi. [1; 182]

Endi asarda qoʻllanilgan baʼzi parchalar va arxaik soʻzlarning lugʻaviy maʼnosi bilan tanishsak: Oʻrazqul, Seydahmad va yogʻochga kelgan ikki kishi tros bilan daryodan yogʻochni sudrab chiqish uchun mashinani qulayroq joygahaydab kelishni koʻzdan kechirish uchun shu tomonga kelishardi. [3; 133]

Tros - lot.(tros) - tolali materiallar, poʻlat simlar, sunʼiy tolalardan ishlangan pishiq, yoʻgʻon arqon.

Bola tomogʻi ogʻriganida bobosi bilan shu posyolkadagi feldsher huzuriga keldandi.

- Feldsher (nems. jarroh, harbiy qism sartaroshi) - oʻrta tibbiy maʼlumotga ega boʻlgan tibbiyot xodimi. [3; 27]

Boshliqlar bostirib keldimi, bas, Oʻrozqul ularni darhol oʻrmonga boshlar, ov uyushtirar, xullas hamma narsaga mutasaddilik qilardi. [3; 14]

- Mutasaddi - arab. boshqaruvchi, biror ishni boshlovchi, tashabbuskor. Oʻtmishda esa kichik amaldor degani...

Istorizmlar oʻtmish zamonga xos soʻzlar boʻlib, u yoki bu narsa, predmetning, tushunchaning yoʻqolib ketishi bilan istemoldan chiqib, unutilib ketgan soʻzlardir. [5; 117]

Marsiya aytuvchilar esa, marhumning oʻgʻillari taqdim etgan argʻumoqlarda yelib, sovgʻaga berilgan suvar telpak va shoyi toʻnlarga oʻralib, marhumni va uning meʼrosxoʻrlarini koʻklarga koʻtarib maqtashardi. [3; 64]

- Suvsar - qimmatbaho, qalin va yumshoq moʻynali yirtqich sutemizuvchilar oilasining bir turining moʻynasi.

Qop-qora dermantin portfelni ochib-yopganda shiqillaydigan qulfi yaltirab turardi. [3; 3]

- Dermantin (yunon. derma, dermatos- teri, charm) ip gazlamaning bir yoki har ikkala tomoniga elastik modda qoplab tayyorlangan, mebelsozlik, muqovasozlik, sanoatlarida foydalaniladigan sunʼiy teri.

Bobo, bunday yigitlar sovxozda mashina quvib, traktorda yer agʻdarib yurishibdi, deb kuyunadi... [3; 20]

Sovxoz - ("sovet xoʻjaligi" birikmasining qisqartmasi) - Sobiq ittifoqda qishloq xoʻjaligida tashkil etilgan yirik davlat xoʻjaligi

- Eh, miltiq boʻlganidami hozir! - ogʻziga kelganini gapirdi Seydahmad. - Oʻn pud goʻsht qilarmidi-a?...[3; 137]

Pud - lot. pondus - ogʻirlik oʻlchov birligi - 16,38 kgga teng.



Metrik o`lchov tizimi qabul qilinguniga qadar qo`llanilgan.

Neologizm - yunon. neos+logos - "yangi so`z" - hayot yangiliklarini ifodalovchi, yangi so`zlar, xalq yoki yozuvchi tomonidan yangidan yasalgan so`zlar hisoblanadi. Jamiyat taraqqiy etgani sari yangi tushunchalar paydo bo`laveradi, ularni yangi so`zlar bilan ifoda qilish ehtiyoji tug`ilavertadi. Buning natijasida xalqimiz orasida yangi so`zlar paydo bo`ladi.

Birdan qorong`ulik bosib, shunaqangi shamol urib berdiki, naq bo`lmasa qo`lingdan barankani tortib olgudek edi. [3; 117]

Baranka (ruscha) - rul chambaragi degani.

Samolyotda-chi, mana bu tog`lar u yerdan tepachalardek ko`rinadi - bort tashqarisida qirq daraja sovuq bo`lsa ichkarida odamlar ko`ylakchan yuraverishardi. [3; 115].

Bort (nemischa) - "chekka, yon" - kema, kosmik kema, yuk mashinasi, samolyot va shu kabilarning yoni, yon tomon devori.

Axir Kosmosga uchaymiz, u bo`lsa seni nimaga o`rgatyapti.

Kosmos - (yun. "Cosmos" - butun olam, koinot) - Yer atmosferasidan tashqarida cho`zilib ketgan, o`zida mavjud bo`lgan barcha obyektlarni qamrab olgan fazo degani...

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Chingiz Aytmatov o`zining "Oq kema" qissasida badiiy obrazlar orqali asarnig xalqchilik xarakteri, xalq hayotining eng dolzarb masalalarni o`rtaga qo`yish, har bir voqea-hodisani xalq manfaatlari nuqtai-nazaridan yondashib, ilg`or dunyoqarash va yuksak go`yaviylik asosida boyitib, xalq ommasi uchun tushunarli bo`lgan badiiy til va uslublar rang-barang shakl va janrlar orqali ko`rsatib bergan. Bir bola timsolida hayotning qo`zalligi va uning oq va qora taraflarini yoritib bergan.

Adabiyotlar:

1. T.Boboyev, "Adabiyotshunoslik asoslari" Tosh. 2002-y.
2. "Oq kema", Ch. Aytmatov, Tosh. 2018-y.
3. "Modernizm", Vrajoleben I.M., 1964-y.
4. N. Shukurov, "Adabiyotshunoslikka kirish", Tosh. 1980-y.
5. Abdullayeva Gulnora Gaybulloyevna. (2022). MEMORY AS AN IMPORTANT FACTOR IN LEARNING VOCABULARY. Open Access Repository, 8(1), 81–86. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/A3S7F>
6. Abdullayeva, G. (2022). LEARNERS'PSYCHOLOGY AS ONE OF THE MAIN ISSUES INFLUENCING LANGUAGE LEARNING PROCESS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ